

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLUKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizullo</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламмутидинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNYI KUCHGA KIRGAN SUD Hujjatlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning ayrim masalalari	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNII- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

NORM ISSUES IN JOSEPH HAMADONIUS' TEACHING ON THE HARMONY OF MAN AND THE UNIVERSE

Barnoev Sanjar Kurbanovich,

Deputy director of the academic lyceum of Bukhara
independent researcher of Bukhara State University

Abstract. In this article, Khoja Yusuf Hamadani's "Risola fi annal-kavna musaxxarun lil-inson" (Treatise on the subjugation of the universe to man) analyzes his views on being and the place of man in it. Issues about the role of man in existence and vice versa about the importance of being in human life are also approached in detail.

Keywords: man, criterion, universe, being, norm, man, ego, mathematics, perception, will, honesty, nature, bite.

YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI

Barnoev Sanjar Qurbonovich

IIV Buxoro akademik litseyi direktori o'rinbosari

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: sbarnoev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xoja Yusuf Hamadoniyning "Risola fi annal-kavna musaxxarun lil-inson" (Koinotning insonga bo'ysundirilgani haqida risola) asarida borliq va unda insonning o'rni haqidagi fikr-mulohazalari tahlil qilingan. Borliqda insonning o'rni va aksincha borliqning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi masalalarga ham atroflicha yondashilgan.

Kalit so'zlar: inson, mezon, koinot, borliq, me'yor, inson, nafs, riyo, idrok, iroda, halollik, tabiat, luqma.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N36>

Kirish. Borliq masalasi bugungi kunga qadar barcha soha vakillari tomonidan eng ko'p tadqiq etilayotgan muammolardan biridir. Borliq tushunchasini turli zamon va makonlarda yashab o'tgan ko'plab faylasuf va mutafakkirlar o'z davri, bilim va dunyoqarashi doirasida izohlashga harakat qilganlar. Biz mana shu izoh va qarashlarni aslo inkor etmagan holda, hozirgi kunda borliq tushunchasiga berilayotgan ta'rifni keltirib o'tishni lozim topdik. borliq moddiylik, ma'naviylik, o'tmish, kelajak, o'lim, hayot, ruh va jismni qamrab oluvchi tushunchadir. "Atrofimizdagi olam, odam, tabiat, jamiyat, tafakkur, o'y, g'oya, xayollarimizning bari birday mavjuddir, ular turli tarz va shakllarda namoyon bo'lib, mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi" [3:56].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xoja Yusuf Hamadoniyning ontologik qarashlari haqida M. Riyohiy, N. Komilov, M. Boltayev, U. Ergashev kabi tasavvufshunos olimlar o'z tadqiqotlarida qisqacha to'xtalganlar. G. Navro'zova va N. Nurmatovalarning "Yusuf Hamadoni — yetti pirning ustoz" deb nomlangan monografiyalarida Yusuf Hamadoniyning "Koinotning insonga bo'ysundirilgani haqida risola" asari chuqur tahlil etilgan. Ushbu tadqiqot ishida

shuningdek, Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyning "Maqomoti Yusuf Hamadoni" asariga ham murojaat etildi.

Muhokama va natijalar. Yusuf Hamadoni o'zining "Koinotning insonga bo'ysundirilgani haqida risola"sida inson har tomonlama kamolga yetmog'i uchun borliq bilan uyg'unlikka erishishi lozimligini uqtiradi. Inson barcha jonzoqlar ichidan aziz va mukarram etib tanlandi, biroq bu "tanlov" unga imtiyozdan ko'ra ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Borliq bilan uyg'unlikka erishmoq avvalambor me'yorni talab etadi. Bu yerda inson har doim tabiatdan olishi emas, balki berishi, qaysi ma'nodaki, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lmog'i, faqatgina ehtiyojlari doirasida uning ne'matlarini istifoda etmog'i, ba'zan uni "ta'mirlab", yetkazgan zararini qoplamog'i lozim. Barcha maxluqlar tabiat in'omlaridan faqatgina ehtiyojlari chegarasida foydalanadi. Biror jonivor qorni to'rganidan keyin o't-o'lanni payhon qilmaydi, daraxtni sindirmaydi, tuproqni toptamaydi, suvni isrof qilmaydi. Biroq inson bu qoidaga ko'p hollarda bo'ysunmaydi. Bu yerda ham nafs ammora insonni tabiatga ochko'zlik va vahshiylik bilan munosabatda bo'lishga chorlaydi. Insonning kalabinligi, shafqatsizligi va ochko'zligi tufayli tabiat doim azob chekadi, o'zining bebaho boyliklaridan birin-ketin mosuvo bo'ladi. Insonning kalabinligi shundaki, uning tabiatga bo'lgan bunday munosabati o'ziga albatta katta falokatlar keltirishini anglamaydi, anglasa ham parvo qilmaydi.

Insoniyatning xudbinlikka asoslangan texnokratik taraqqiyoti shunday xatarli nuqtaga kelib qoldiki, ona tabiatning million yillarga tatigulik, o'zaro uyg'unlik zahirida kechirib kelayotgan hayoti oxirlab borayotgandek tasavvur uyg'otadi. Hayvonot-nabotot olamining gultoji baniy bashar yalpi iste'molchilikka asoslangan taraqqiyot yo'lida ona tabiatni talon-taroj qilib uning ekologik qiyofasini butunlay o'zgartirib yubordi. Albatta, texnokratik taraqqiyotning inson baxti va saodati uchun ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Lekin taraqqiyot uchun hech bir qadam tabiatni poymol etish evaziga bosilmasligi kerak.

Tasavvuf ta'limoti tarixiga nazar soladigan bo'lsak, inson va koinot, inson va tabiat, ularning o'zaro munosabati, insonning borliqdagi o'zni va borliqning inson hayoti va takomili uchun ahamiyati haqida asarlarni uchratmaymiz. Bu shundan dalolat beradiki, Yusuf Hamadoni tasavvuf shayxi bo'lishi bilan bir qatorda dunyoviy masalalardan uzilib qolmagan, o'zi ta'kidlaganidek doimo "hush dar dam", "nazar bar qadam", "safar dar vatan" va "xilvat dar anjuman" maqomida bo'lgan.

Yusuf Hamadoniyning "Rutbat ul-hayot" asarining mazmun mohiyatida insonning Alloh tomonidan barcha maxluqlarning avvali, azizi va sarvari etib tanlangani g'oyasi yotadi. Mana shu g'oya mutasavvuf olimning "Borliqning insonga bo'ysundirilgani haqida risola"da yanada rivojlantiriladi. Asar avvalidayoq muallif Alloh taologa hamdlar aytish mobaynida inson Alloh tomonidan ojiz va muhtojligini ko'rish, U tomonidan hamma narsani bir-biriga bog'lab, O'ziga muhtoj qilish uchun yaratilganini ta'kidlaydi [7: 106]. Shu bilan birga Quroni karimning Josiya surasi, 13-oyatini keltirish orqali inson barcha jonzoqlar ichidan mas'uliyatli qilinganiga urg'u beradi: "U O'z tomonidan (ya'ni, O'z xohish irodasi bilan) sizlarga osmonlardagi va yerdagi barcha narsalarni bo'yinsundurdi" [5:463]. Inson unga in'om etilgan tafakkuri orqali bu mas'uliyatni anglamog'i va koinot unga omonat ekanligini his qilmog'i kerak.

Koinot, inson barcha sezgi organlari orqali mavjud borliq, olam va undagi barcha narsalar, hodisalar, tirik mavjudotlar olamidir. Uning mavjudligi esa undagi barcha narsalarning o'zaro uzviy bog'liqligidadir. Shunday ekan, koinot sirdan inson amriga muntazir

ko'ringani bilan, insonning unga ehtiyoji yuqoriroq va ma'nan koinotga bo'ysunuvi bor haqiqatdir.

Yusuf Hamadoniy o'zining "Borliqning insonga bo'ysundirilgani haqida risola"sida koinot unsurlari va ne'matlarini birma-bir sanab, ularning inson va uning kamoloti uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini atroflicha izohlab boradi. Muallif borliq ne'matlarini shartli ravishda o'n bir majmuaga ajratadi va ularga quyidagicha ta'rif beradi:

1. Koinot bir taomdir. Sen uni yeb, o'zingda hazm qilasan. Koinot ichimlikdir. Uni ichib tugatasan. Koinot kiyimdir. Sen uni kiyib eskirtirasan. Koinot maskan-uydir. Sen unda yashaysan. Uni ba'zan ta'mirlaysan, ba'zan buzasan, ba'zan qulatasan [7:108].

Bu ne'matlardan foydalanar ekan inson avvalo me'yorga amal qilishi lozim. Shundagina koinot uning barkamolligiga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga yemoq, ichmoq va kiymoqda inson halollikka e'tibor qaratmog'i kerak. Zero, halol luqmagina insonning vujudi va ruhiga quvvat baxsh etadi. Kiyimi va yashaydigan makoni har doim toza-ozoda bo'lishi kerak. Bu talablarning barchasi buyuk shayxning hayotlarida dasturulamal bo'lgani yaxshi ma'lumdir.

2. Koinot issiqlik va sovuqlikdir [7:108].

Issiqlik va sovuqlik o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik muvozanati inson tomonidan unga berilgan omonatni suiiste'mol qilish bilan buzilmoqda. Turli xil yo'llar orqali issiqni sovuq va sovuqni issiq qilishga bo'lgan harakatlar to'xtamayapti. Olimlarning fikricha, inson tomonidan tabiat qonunlari qo'pol tarzda buzilishi oqibatida sayyoramiz iqlimi o'zgarib 2050 yilgacha harorat 4.5 darajagacha ko'tarilishi xavfi kutilmoqda. Bu xavf avvalambor insonning o'ziga, uning kelajak avlodiga qaratilganini tushunib yetish lozim. Shu bilan birga har bir kishi yeyish, ichish va kiyinishda issiqlik va sovuqlik me'yorlariga rioya etishi kerak, aks holda tana mijoziga salbiy ta'sir yetib, turli xil kasalliklarga sabab kelib chiqishi mumkin.

3. Koinot nur va olovdir [6:108].

Yusuf Hamadoniy tasavvufiy ta'limotida inson qalbi poklangandan so'ng nurga to'ladi, degan qarash mavjud. Inson qalb nuri bilan nafaqat o'zini, balki, yon-atrofidagilarni ham ezgulik tomon boshlashi mumkin [2:1242]. Nur faqatgina pok qalbgacha xosdir. Pok qalb esa bir qancha riyozatlar orqali erishiladigan makondir. Olov esa shayxning "Rutbat ul-hayot" asarida g'azabga qiyoslanadi: "fitratiga g'azab olovi sachragan kishi haqida nima deysan? Bu g'azabning ta'siri va hokimligi uning fitrati ustidan g'olib keladi. G'azab shunday bir illatki, na tadbirkor aql, va buyuruvchi qalb unga bas kela oladi. Bu ikkovi g'azab olovining ta'sirida so'nib, bu holdagi kishidan aqlga maqbul bo'lmagan va ko'ngilga o'tirmaydigan ba'zi ishlar yuzaga keladi. Bu holat ahvollari qorishiq bo'lgan va iblis egallab olgan kishilar sifatidir. Ba'zan ularda g'azab otashi kuchayib, ular go'yo yirtqich hayvonlarga do'nadilar. Ba'zan shahvat otashi zo'rayib, ularni hayvonga aylantirib qo'yadi. G'azabi va shahvati g'alaba qozongan bu insonning qalbida nur qolmaydi, natijada aqlining ta'sir kuchi ham yo'qoladi" [8:50].

4. Koinot suv va tuproqdir [7:108].

Avvalo, inson suv va tuproq qorishmasidan bunyod etilgani, uni o'z aslini bilish, kamtarin va xokisorlik fazilatlariga ega bo'lishga undamog'i kerak. Qolaversa, barcha tirik mavjudotlar tanasining katta qismini suv tashkil etadi. Har bir inson suvni bebaho ne'mat deb bilishi, undan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishi bugungi kun uchun ayniqsa, dunyo miqyosidagi eng dolzarb muammodir. Suvdan me'yorida foydalanmaslik hozirda ko'plab mamlakatlarda ichimlik suvining tanqisligini keltirib chiqarmoqda. Buning ustiga sanoat taraqqiyoti suvga bo'lgan talabni kundan-kunga oshirmoqda. XXI asrga kelib, suvga bo'lgan

talab o'tgan asrning 90-yillariga nisbatan 2.5 barobarga ortgan. Suv tanqisligi muammosi eng ko'p xavf solayotgan hududlardan biri O'zbekiston hisoblanadi. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab cho'llarni o'zlashtirish vaji bilan Amudaryo va Sirdaryo suvlarining qo'riq yerlarga burib yuborilishi natijasida bugun mintaqaning eng katta ko'llaridan bo'lgan Orol tobora qurib bormoqda. Bu esa nafaqat bizning yurtimiz uchun, balki butun Markaziy Osiyo uchun eng achinarli tabiiy falokatdir.

5. Koinot havo va shamoldir [7:109].

Tabiat in'omlaridan biri bo'lmish havo – atmosfera qatlami inson va barcha jonzoqlar uchun zaruriy hayot manbaidir. Sanoat taraqqiyoti, avtotransport vositalarining haddan ziyod oshib ketganligi va ulardan chiqayotgan zararli gazlarning miqdori kundan-kunga ortayotgani atmosferadagi kislorodning tobora kamayib borayotganiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, atmosfera uchun kislorod yetkazib beruvchi yer yuzidagi yashil qatlamning insoniyat shafqatsizligi va tabiiy yong'inlar oqibatida tobora qisqarib borayotgani bu jarayonni yanada jadallashtiryapti.

6. Koinot oila qurish va nikohlanishdir [7:109].

Borliqdagi barcha jonzoqlar juft yaralgan. Har bir juft o'zidan nasl qoldirib ta'bir joiz bo'lsa, tabiiy populyatsiyasini ta'minlashi kerak. Yusuf Hamadoniy bu jarayon inson uchun boshqacharoq tartibda kechadi, degan qarashni ilgari suradi. Inson o'zidan nasl qoldirishi uchun nikohga asoslangan oilaviy munosabatlarga kirishishi lozim. Ikki qarama-qarshi jins vakillari o'rtasidagi nikohsiz munosabatlar kasri nafaqat ularning o'ziga, ularning oila a'zolari, farzandlariga ham uradi. Keyingi vaqtlarda g'arbdagi "majburiyatsiz erkin munosabatlar" tamoyiliga asoslangan erkak va ayollar o'rtasidagi muloqotlar yurtimizgacha yetib kelayotgani achinarli holdir. Bunday axloqsizliklarga qarshi kurashishning yagona yo'li yosh avlodda pok qalb, pok nazar, halol munosabat qarashlarini shakllantirish.

Halol va haromni farqlaydigan etib tarbiyalashdir.

7. Koinot xalq bilan birga bo'lishdir.

Inson ijtimoiy mavjudotdir. Shuning uchun uning hayotini jamiyatdan ayri tasavvur qilish mumkin emas. Ijtimoiy munosabatlarda inson boshqalarga nisbatan mehrli, toqatli va adolatli bo'lsa, bunday munosabatlar albatta uning tani va ruhiga huzur-halovat baxsh etadi. Aksincha bo'ladigan bo'lsa, inson hayotda, jamiyatda o'z o'rnini topa olmay qiynaladi. Yusuf Hamadoniy har doim xalq orasida bo'lish, uning dardi bilan yashash, jamiyatdan bir lahza bo'lsin uzilib qolmaslik lozimligi haqidagi qarashlarini o'zining "xilvat dar anjuman" va "safari dar vatan" rashhalarida yanada mustahkamlaydi.

8. Koinot uyqu va uyg'oqlikdir [7:109].

Uyqu va uyg'oqlik insonning fiziologik ehtiyojlari doirasidagi tabiiy jarayondir. Uyqu insonning vujudi va ruhini yangilash, tozalash va turli illatlardan xalos etish va yangi quvvat olishi uchun zarurdir. Lekin u me'yordan oshadigan bo'lsa, aks ta'sirlarni keltirib chiqaradi. Muntazam uyqusizlik ham o'z navbatida turli xil kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga uyg'oqlik masalasi muallif nazdida hushyorlik va ogohlik tushunchalari bilan hamohangdir. G'aflda qolmaslik uchun inson doim uyg'oq-hushyor bo'lishi lozimligi Yusuf Hamadoniyning "hush bar dam" rashhasida aniq ifodasini topadi.

9. Koinot yeyish, ichish, eshitish, hidlash, so'z, ish, harakat va to'xtashdir. Inson o'z holi va ehtiyojiga qarab barcha ne'matlardan bahra olmog'i va me'yorni unutmasligi kerak. Qachon harakat qilib, qachon to'xtashi lozimligini anglashi uchun unga aql berilgan. "Inson o'z holiga

o'zi shafqat qilishi kerak, buning uchun u nafsiga, badaniga, tabiatiga ortiqcha narsalardan o'zini yiroq tutmog'i lozim. Buning natijasida u vujudining bardavomligini ta'minlaydi" [1:76].

10. Koinot tafakkur va botiniy ishlarda mulohaza yuritishdir [7:110].

Borliq jonzotlaridan faqatgina inson tafakkur sohibi hisoblanadi. Shunday ekan, u bu ne'matni nafaqat o'z manfaati yo'lida balki butun koinot ravnaqi uchun tasarruf etmog'i lozim. Har bir so'z, amal, harakat va harakatsizlik aql tarozisidan o'tmog'i lozim. Aks holda, inson o'ziga berilgan barcha imkoniyatlarni qo'lidan boy beradi. Yana shuki, bu teran tushunchalar inson tabiatining chegarasidan oshib ketsa, u insonning sezgirligini, hushyorligini mahv etadi, natijada inson aql-u idroki butunlay barbod bo'ladi.

11. Koinot istak va irodadir. Chunki undan senga foydalar bor [7:111].

Inson istaklarining, ehtiyojlarining cheku chegarasi yo'qdir. Agar bu istak va xohishlar sabr va qanoat irodasiga bo'ysundirilsa, ular faqat ezgulikka xizmat qiladilar. Aksincha bo'lsa, inson nafaqat o'zi uchun balki zamondosh va makondoshlari uchun ham turli ko'ngilsizliklar kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Inson istak va irodasi haddini anglab yetishi Hamadoniylar fikricha, vujudi va ruhi kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uning bu holatda yashashi (istak va iroda chegarasini anglashi – S. Barnoyev) tasarrufi ostida bo'lgan narsalar undan hukmdor va Parvardigorga shikoyat qilmasliklariga sabab bo'ladi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Yusuf Hamadoniylarning "Koinotning insonga bo'ysundirilgani haqida risola"si bugungi kun uchun o'z ahamiyatini yo'qotmagan juda dolzarb muammolar va ularning yechimiga bag'ishlangan g'oyat bebaho asardir. Har bir bashariyat taqdiriga befarq bo'lmagan inson asardan quyidagi ibratlarni oladi:

Inson va tabiat bir-biriga omonat, ular har doim o'zaro uzviy bog'liqlikda. Lekin bu borada mas'uliyat inson zimmasiga tushadi, u tafakkur sohibi sifatida tabiat va o'zining uyg'unligini doim nazorat qilib, muvozanat buzilishiga yo'l qo'ymasligi kerak;

Inson borliqning kichik bir nusxasidir, borliqdagi barcha narsalar inson vujudida o'z aksini topgan. Shunday ekan inson borliqni, tabiatni asrash orqali avvalo o'zini halokatdan qutqarib qoladi;

Har bir inson o'ziga berilgan ko'rish, eshitish, ta'm bilish, harakat qilish va idrok qilish kabi ne'matlardan ezgu maqsadlar yo'lida unumli foydalanadigan bo'lsa, nafaqat o'zi komillik sari yuz tutadi, balki jamiyat taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'sha oladi;

Eng asosiy masala esa me'yordir. Agar baniiy bashar barcha sohalarida me'yorni unutilgan bo'lsa, oqibat natija nafaqat tabiiy ofat va falokatlar, energoresurslar taqchilligida namoyon bo'ladi, balki, insonning ruhiy-axloqiy tanazzuliga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur tarixiy manba yosh avlodni ona tabiatga hurmat ruhida tarbiyalashga, kundan-kunga ortib borayotgan ekologik xavf-xatarlar mohiyatini to'la tushunib yetish va oldini olishga, odil davlat va fozil jamiyat barpo etishga xizmat qiluvchi bebaho ma'naviy merosdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Наврўзова Г., Нурматова Н. Юсуф Ҳамадоний - етти пирнинг устози. Т.: "Mashhurpress". 2016. 148 б.
2. Nematullo Mukhamedov, Lazizakhon Alidjanova (2020). Personality of Khoja Akhror and his factor in the social-spiritual Life // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal_

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=10&article=192>. Pages: 1242-1246. DOI : [10.5958/2249-7137.2020.01263.X](https://doi.org/10.5958/2249-7137.2020.01263.X)

3. Фалсафа. Энциклопедик луғат. ЎзРФА Фалсафа ва ҳуқуқ институти. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. Т.: 2010, 346 б.
4. Эргашев У. Юсуф Ҳамадоний ва Абдуҳолиқ Ғиждувоний – Ҳожагон тариқатининг асосчилари. Тошкент. Адолат. 2003. 77 бет.
5. Қуръони карим. Алоуддин Мансур таржимаси. www.ziyouz.com кутубхонаси. 463-бет.
6. Ҳожа Абдуҳолиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2019 й. 96 бет.
7. Ҳожа Юсуф Ҳамадоний. Борлиқнинг инсонга бўйсундирилгани ҳақида рисола// Рутбат ул ҳаёт [Ҳаёт мезони]. Таржимонлар: С. Сайфуллоҳ, Н. Ҳасан. Т.: “Ўзбекистон”, 2019. 136 б.
8. Ҳожа Юсуф Ҳамадоний. «Рутбат ул-ҳаёт». Тошкент. “Ўзбекистон”. 2019 й. 136 бет.
9. Ҳасаний М., Раззоқова М. Ҳожагон тариқати ва Ҳожа Ҳасан Андоқий. Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси, Шарқшунослик институти, Имом Бухорий илмий-маърифий маркази. Тошкент 2003 йил. 48 бет.
10. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. Тошкент. «Шарқ». Нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси. 2004 йил. 208 бет.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).